

О'ZBEKISTONDA IRRIGATSIYA ISHLARI, UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Xusamboyeva Dilnoza Rustambek qizi

Toshkent irrigatsiya qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar insituti

Milliy tatqiqot unversiteti TIQXMMI-MTU Mag 2021-2022

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda irrigatsiya ishlari, uning rivojlanish istiqbollari, yerdan unumli foydalanish va mo'l hosil olish, qishloq xo'jaligi ishlarini qiyinlashtiradigan tabiiy noqulay sharoitlar haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: irrigatsiya, sun'iy sug'orish, qishloq xo'jaligi, gidromelioratsiya, investitsiya.

Kirish:

Yerdan samarali foydalanish va mo'l hosil olish uchun ijtimoiy iqtisodiy sharoitlardan tashqari o'simlik uchun tegishli yaxshi tashqi (suv, mineral oziqlik, issiqlik, havo) bo'lishi zarur. Ba'zi rayonlarda shu sharoitlar qishloq xo'jaligi uchun tabiiy qulay bo'lsada boshqa rayonlarda esa noqulaydir. Shunday hollarda inson dehqonchilik faoliyati bilan uni o'zgartirish, o'simlik uchun yaxshi sharoit yaratib berishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Qishloq xo'jaligi ishlarini qiyinlashtiradigan tabiiy noqulay sharoit turli xil bo'lishi mumkin Masalan: katta maydonlar botqoqlikka aylangan bo'lishi mumkin. Bu maydonlardagi tuproqlarda namlik haddan tashqari ortiq. O'zbekistonning ko'pchilik maydonlari qurg'oqchilik yerlar bo'lib, bu yerlarda avval tuproqlarda namlik yetarli emas, yer usti suvlari bilan ta'minlash imkoniyati ham oz. Shuning natijasida sun'iy sug'orishdan foydalanish va qo'shimcha suv resurslarni qidirish zarurati paydo bo'ladi.

O'rta Osiyoning o'ziga xos quruq iqlimi qadim zamonlardan dehqonchilikda sun'iy sug'orishni keltirib chiqardi. Bu yerda sun'iy sug'orish birdaniga paydo bo'lgani yo'q. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishiga tosh asrining uzoq davom etish davri zamin yaratdi. Bu davrda inson tabiatning tayyor tabiiy sharoitlariga moslashdi va jamoa bo'lib ovlash, baliq ushlab va terib olish bilan kun kechirdi. Shuning uchun oddiy xo'jalik yuritish - o'zlashtirib, o'ziniki qilib olish iqtisodiy doirasidan chiqmadi. Buyuk rimlik materialist Gi Lukretsiy Kar insoniyatning bu davri to'g'risida shunday degan edi.

«Quyoshning ko'p aylanishlarining uzoq davomida odam yovvoyi hayvonga o'xshab darbadarlikda hayotini o'tkazdi. Hech kim qattiq qo'li bilan egri omoch ushlab ishlamadi, daladagi yerni temir bilan ishlashni bilmas edi. Yosh niholni ekishni, baland daraxtlardan o'tkir o'roq bilan qurigan eski shoxlarini kesishni bilmadi».

Natijalar:

O'zbekistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi vaqtida O'zbekistonda asosan mahalliy sanoat takomillasha boshladi. Paxtachilikka tegishli zavodlar qurila boshlandi: paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish va boshqalar. Mahalliy millatlar orasidan ishchi sinfi paydo bo'la boshladi. O'zbekiston xalqi ilg'or madaniyatga intila boshladi, bir qancha asrlar davom etib kelgan urushlar to'xtadi, qullar yo'qoldi, lekin chor yakka hokimiyatchiligi O'zbekistonda kolonial tuzumi tuzdi, mehnatkash xalq ikki tomonlama jabr zulmiga duchor bo'ldi. Bir tomondan chor amaldorlari, ikkinchi tomondan mahalliy feodal-savdogarlar, ekspluatatorlar tomonidan ezildi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi bu shartnomalarning bajarilishi bo'yicha umumiy monitoring olib boradi. Ikkilamchi suvdan foydalanuvchi suv olishi uchun birlamchi suvdan foydalanuvchiga besh kun oldin yozma talabnoma berilishi kerak. Iste'molchi suv olish uchun albatta o'zining hisobidan suv olish joylarini suvni rostlash va o'lchash uskunalari bilan jihozlashi, gidromelioratsiya tarmoqlarini va ulardagi inshootlarni tozalashi va ta'mirlashi kerak.

Muhokama:

Ro'yxatdan o'tmagan joylardan suv berish man etiladi. Hozirgi kunda qishloq xo'jalik ekinlarini yer ustidan sug'orish orqali yuqori me'yorda ekinga berilishi va sug'orish tarmoqlari orqali suv resurslarining noto'g'ri taqsimlanishi oqibatida global suv tanqisligiga olib kelmoqda. Yangi suv manbalarini izlash va o'zlashtirish, suv xo'jaligi tizimlarini yaxshi sharoitda ushlab turish kattadan-katta investitsiyalarni talab etishi mumkinligi ma'lum sanaladi.

Har bir kub metr suvning narxi qimmatlashib borib, rivojlanayotgan davlatlarning suv ta'minotida muammolar keltirib chiqarmoqda. Respublikamizda hozirgi Suvdan foydalanish modeli saqlanib qolgan holda, aholi boshiga to'g'ri keladigan suv iste'molini inobatga olib, suv resurslarining tanqisligi bartaraf qilish haqida Davlatimiz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblandi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Respublikamizda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishda qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda va suv iste'molini belgilashda, uni amalga oshiruvchi suv tejankor sug'orish texnologiyalarini tatbiq etilayotganligi yuqori ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamidov M.X., Shukurlaev X.I., Mamataliyev A.B. Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. Darslik.–Toshkent: Sharq, 2009.
2. Qishloq xo'jaligida sug'orish melioratsiyasi./ Raximbaev F.M. va boshqalar. Amaliy o'quv darsligi, Toshkent. Mehnat. 1994
3. B.S.Serikbaev, F.A.Baraev va boshqalar, Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish, Toshkent, Mehnat, 2001
4. Serikbaev B.S., Baraev F.A., Teshaboyev B. Va boshqalar "Gidromelioratsiya tizimlaridan foydalanish," O'quv qo'llanma. Toshkent. Mehnat. 2008
5. Xamidov M.X., Shukurlaev X.I., Mamataliyev A.B. Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi. Darslik.–Toshkent: SHarq, 2008